

O'zbekiston va Chexiya o'rtasida ikki tomonlama bitimlar to'plami imzolandi

2026 30 Aprel

Toshkent shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish Kengaytirilgan hamkorlikni ilgari surish to'g'risida qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.



Shuningdek, iqtisodiyot, sanoat, ilmiy va texnologik hamkorlik, diplomatik kadrlarni tayyorlash, metrologiya laboratoriyasini birgalikda loyihalashtirish va tashkil etishni qo'llab-quvvatlash, metrologiya sohasidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik, geologiya sohasidagi hamkorlik, elektropoyezdlarni yetkazib berish to'g'risida va boshqa ikki tomonlama kelishuvlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Foto: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati

<https://president.uz/oz/lists/view/9159>